

**MATNAZAR ABDULHAKIM IJODIDA BOTAYOTGAN QUYOSH
OBRAZI**

Mohichehra Rustamova

972037810, mohichehrarustamova7771@gmail.com

Annotatsiya

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida botayotgan kun obrazi lirik qahramon ruhiyatining badiiy talqinida faol. Badiiy adabiyotda botayotgan kun insonlarda zavq-shavq uyg‘otish barobarida kunning o‘zi ma’naviy nur ulashuvchi ramz sifatida ham talqin qilinadi. Matnazar Abdulhakim she’riyatida quyosh obrazi alohida ahamiyat kasb etadi.

Annotation. The image of the setting sun in modern Uzbek poetry is active in the artistic interpretation of the lyrical hero's psyche. In fiction, the sunset is not only a source of joy, but also a symbol of spiritual enlightenment. In Matnazar Abdulhakim's poetry, the image of the sun is of special importance.

Аннотация. Образ заходящего солнца в современной узбекской поэзии активен в художественной интерпретации психики лирического героя. В художественной литературе закат — не только источник радости, но и символ духовного просветления. В поэзии Матназара Абдулхакима особое значение имеет образ солнца.

Kalit so‘zlar. an’anaviy obraz, badiiy tahlil, ma’naviy nur, quyosh chiqishi

Keywords. traditional image, artistic analysis, spiritual light, sunrise

Ключевые слова. традиционный образ, художественный анализ, духовный свет, восход солнца

Quyosh botishini hech kuzatganmisiz? Shafaq uzra sekin asta botib borayotgan quyosh o‘zgacha go‘zallik kasb etadi. Matnazar Abulhakim iste’dodli o‘z uslubini yarata olgan shoir. Uning she’rlarini o‘qigan kitobxon yangilikka o‘ch ijodkorning ijod dunyosiga beixtiyor mehr qo‘yadi. She’rlaridagi ajib topilmalar o‘quvchini beixtiyor mulohaza yuritishga undaydi. “Botayotgan kun” she’rida quyosh botishi va mana shu vaqtida insonlarda kechadigan kechinmalar tasvirlangan. Quyosh obrazi badiiy adabiyotimizda an’anaviy obrazlardan bo‘lib, u ijodkor yashagan davr nuqtayi nazari bilan turlichayi ma’nolarni anglatib keladi. Jumladan, mumtoz adabiyotimizda, xususan, Lutfiy, Navoiy, Bobur kabi

buyuklarning ijodida quyosh obrazi orqali ilohiy ishq tarannum etilgan.. Alisher Navoiy:

Ey quyosh, nevchun qoshingdin soyadek surdung meni,

Ravshan aylab jumlayi olamni kuydurdung meni

baytida ham quyosh timsolida Allohga munojot aks ettirilgan.

Yoki bo‘lmasam XX asrning boshlarida o‘zbek lirikasida quyosh obrazi o‘lkada yuz berayotgan keskin ijtimoiy-siyosiy kurashlar fonida berildi. Buning yorqin namunalarini Usmon Nosir, Cho‘lpon, Oybek kabi zabardast, erksevar shoirlarning ijodlarida kuzatamiz. Aynan Cho‘lponning “Tortishuv tongi” she’ridan olingan quyidagi satrlarida quyosh obrazi erk, istiqlolga tashna xalqning orzu-umidi sifatida talqin etilgan:

Chiqadigan quyoshni siz behuda,

Etak bilan to‘smoq uchun tirishmang.

“Chiqadigan quyoshni” o‘xshatish san’ati orqali oddiy quyosh chiqishidan farqlagan va bu bilan millatning mustaqillikka intilish orzusi kuchli ekanligini ifoda etgan.¹ Zamonaviy o‘zbek she’riyatida botayotgan kun obrazi lirik qahramon ruhiyatining badiiy talqinida faol. Badiiy adabiyotda botayotgan kun insonlarda zavq-shavq uyg‘otish barobarida kunning o‘zi ma’naviy nur ulashuvchi ramz sifatida ham talqin qilinadi. Matnazar Abdulhakim she’riyatida quyosh obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir she’rining badiiy tahliliga diqqatimizni qaratamiz.

Oftob nurlari bizga issiqlik beradi. Quyosh klinikni qorong‘u zulmat nurlaridan porloqligi va yorqinligi bilan himoya qiladi. Agar quyosh bo‘lmasa bu olamni zulmat qoplaydi. Hamma yerni muz qoplagan bo‘lardi. Quyosh borki olam nurafshon, kun borki o‘simliklar yashnab o‘sib turibdi. Quyosh chiqishidan tortib, kun davomida charaqlab turishigacha ajib go‘zallik kashf etadi.

Botayotir kun “Giryा” aytib,

Borlig‘ida qontalash bir dard.

Nafaqat ufq, yurak yurakka

Cho‘ka boshlar nurafshon hasrat.²

Kun gir aylanib botib boryapti. Ufq qizg‘ish shaklda sekin astaa botadi. Xuddi borlig‘ida qontalash bir dardi bordek qizg‘ish rangda bo‘ladi. Nafaqat ufqqa, balki yurk-yuraklarga nurafshon hasrat, alamlar ham cho‘ka boshlaydi. Quyosh botishini kuzatar ekansiz olamni, undagi hamma narsaning vaqt soati borligini

¹ Nigora Salohiddinova Shoiraning quyoshi. <https://yoshlikjurnali.uz/tadqiqot/shoiraning-quyoshi>

² Matnazar Abdulhakim “Javzo tashrifi” “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent 2008. 143-b.

anglaysiz. Masalan, ufqda faqat quyush yo kun emas, balki qachadan qancha hasratlar ham botmoqda deydi shoir. Bu she'rda ufq faqat o'z ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda ham qo'llangan. Inson umri ham kun va tun kabi oq va qora ranglardan iborat. Kun botadi, ammo ertaga yana erta tong bilan bizni yo'qlab keladi. Bu o'z o'rnida tushkunlik, yoki g'am-alamli kunlar ortidan yana nurafshon kun kelishini isbotlayapti. Tabiatning qonuniga ko'ra har yigirma to'rt soat bir kunni tashkil qilsa, mana shu yigirma to'rt soat ichida ham kun ham tunning guvohi bo'lamiz. Mana shu oraliqda kun va tun o'zaro o'rin almashinish jarayonidagi holat ijodkor ahli mana shunday ajib go'zalikdan ta'sirlanib, albatta biron misra yoki biron bir tasviriy asar yaratadi. Hech bir ijod ahli diqqatidan chetda qolmaydigan bu ajib manzarani shoir Matnazar Abdulhakim Xojixon Boltayevga bag'ishlab yozgan "Botayotgan kun" she'rida imkon qadar tariflashga uringan.

Yurak pardamizni yorgudek

Lovullaydi ufqda bir xitob.

Xorazmni boshiga kiyim,

Yallig'lanib kuylaydi oftob.

Ufqdag'i lovulldab turgan olov yolqinidan yurak pardasi yorilib ketgudek bo'lib turadi. Xorazm osmonining boshiga kiygan olovli qalpoq misoli yerning bir qismini qamrab, lovullab turardi. Oftob kun yakunida tun bilan o'zaro navbat almashinayotgan bir paytda yallig'lanib, to'lib-toshib qo'shiq kuylaydi. O'choq boshida yoki tandirda olovning yonishini kuzatganmisiz? Alanga lovullab turadi. Ufq quyoshi ham xuddi shunday tovlanib sekin botib ketadi.

Chiqishini bilsak-da yana tongda,

Yurakni iztirob qiynaydi.

Ona quyosh imillab botar,

Umrimizni ko'zi qiymaydi.

Tabiat qonuni bo'yicha botgan quyosh yana chiqadi. Shuni bilib turgan lirik qahramon yelkasiga shoir iztirobni yuklaydi. U tongda kunning qayta chiqishini biladi, ammo yuraklari azoblanib, ona quyosh umrimizni ko'zi qiymasdan imillab botib boradi. Quyoshda nur bor, yorug'lik bor, lirik qahramon kutayotgan iliqlik, mehr-muhabbat bor. Shoir qalbidagi ana shu tuyg'ularni yuqori kayfiyatda tarannum etishda quyosh obraqi o'zining falsafiy-badiiy yukini tashigan va ijodkor dunyosini yoritishda alohida rol o'ynagan.

Iloj topmay u mushtiparni,

Kuzatamiz mahzun, o'ychan, jim.

Garchi so'ngsiz umri qoshida

Bizning umr dengizdan tomchi.³

Quyosh abadiy nur sochadi. Uning nurlari adosiz deyishadi olimlarimiz. Ammo uning yashagan umri va bizning ya’ni insoniyat yashaydigan ma’lum bir davrni olib qaraydigan bo‘lsak, quyush umri bir dengiz bo‘lsa, mana shu bir inson umri o‘sha katta dengizdan bir tomchi hisoblanadi.

Bir tasavvur qilib ko‘ring: maysa quyoshga intiladi – o‘sishi uchun; biyobonda qolgan odam suvgaga intiladi – tashnalikni qondirish uchun. Bizning lirik qahramon esa yaqinlarining mehr-muhabbatiga mushtoq. Xazon bosgan ko‘ngil uyida jigarlarining mehri o‘t-olovdek yonib turadi. Endi esa uning qalbida lovlab yonayotgan tuyg‘ularini birma-bir quyma satrlarga joylaydi.

Inson bilan quyosh bir-birin

Qayg‘urishar shunday azaliy.

Tong otguncha yulduzlar so‘ylar

Jimirlagan sovuq tasalli.

Quyoshni Alloh taolo insonlar uchun, tabiatdagi mavjudodlar, umuman olganda butun olamni zulmat askatlaridan asrab turish, issiq tafti ila sovudan saqlash uchun, kunimizni yorug‘ qilish uchun yaratgan. Hamisha inson bilan quyosh bir-birini qayg‘urib keladi. Tong yetib kelgunicha yulduzlar jimirlagan sovuq tasallidan so‘zlab o‘tiradi. Quyosh yo‘q vaqtida zerikmasin bu olam deya Alloh oy va yulduzlarni yaratgan. Kun chiqib kelguniga qadar yulduzlar insonga tasalli beradi. Yulduzlarga issiqlik berilmaganligi bois ularning tasallisi sovuq bo‘ladi. Shuning uchun biz quyoshni sog‘inamiz. Uni qumsaymiz, tong otguncha uni kutamiz, otishidan oldin botadigan bizning quyoshimiz, botayotgan kun bo‘lganligi uchun nurlarini har kuni kun yakunida insonlardan uzoqlashgisi kelmasdan sekin o‘z uyiga kirib, ertangi kun uchun dam olib kuch to‘playdi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Matnazar Abdulhakim botayotgan quyoshni Xorazm osmonining boshidagi qalpoqqa, lovullab yonib turgan olovga o‘xshatadi. Ulardan keyin chiqadigan yulduzlar beradigan tasalliga sovuq sifatlashini beradi. Quyosh botishini hayotiy chizgilar bilan chizib, badiiy bezak bilan bezaydi.

³ Matnazar Abdulhakim “Javzo tashrifi” “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi. Toshkent 2008. 143-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matnazar Abdulhakim “Javzo tashrifi” “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi. Toshkent 2008
2. Matnazar Abdulhakim “Fasllar qo’shig‘i” Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent 1986
3. Nigora Salohiddinova Shoiraning quyoshi.
<https://yoshlikjurnali.uz/tadqiqot/shoiraning-quyoshi>